



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKСУДАЛИ KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 343.2 343.28/.29

JAZO TAYINLASHNING UMUMIY ASOSLARI: TAHLIL VA TAKLIF

Tillayev Do'stmuhammad Ne'matjon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: dostmuhammadtillayev@gmail.com
ORCID 0000-0002-0835-5637

Annotatsiya. *Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi va sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga yarasha jazo olishi shart. Bugungi kunda odil sudlov siyosatini yuritish davlat siyosatining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Davlat nomidan sud tomonidan tayinlanadigan jazo adolatli bo'lishi, shaxsni axloqan tuzalishi uchun yetarli bo'lishi darkor. Ushbu maqolada sudlar tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar keltirib o'tilgan va jinoiy jazo tayinlash sohasini takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalar bayon qilingan. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda jazo tayinlash, yengilroq jazo tayinlash, boshqa-boshqa turdagi jazolar tayinlanganda ularni hisoblash tartibi keltirib o'tilgan. Jinoyatchi shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda uning sodir etgan jinoyatining xususiyatini inobatga olgan holda insonparvarlik va qonuniylik prinsiplarining ro'baro kelishi adolatni ta'minlashda ustuvor prinsiplar ekanligi muhokama qilingan. Jazo tayinlashdan ko'zlangan maqsadga erishish va jinoyat sodir etilishining oldini olish davlat siyosatining utuvor vazifasi ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, jazo tayinlash borasida xorijiy tajribalar o'rganilgan holda milliy tizimimizdagi holatlar bilan qiyosiy tahlil etilgan va ularni joriy qilish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *jinoiy jazo, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holat, jinoyatga tayyorgarlik, jinoyat sodir etishga suiqasd, jinoyatda ishtirokchilik, jazo tayinlash.*

ОБЩИЕ ПРИНЦИПЫ НАЗНАЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Тиллаев Дустьмухаммад Нематжон угли,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *Лицо, признанное виновным в совершении преступления, подлежит привлечению к ответственности и наказанию в соответствии с совершенным им общественно опасным деянием. Сегодня отправление правосудия является одной из важнейших частей государственной политики. Наказание суда от имени государства должно быть справедливым и достаточным для реабилитации личности. В данной статье изложены соображения, которые суды должны учитывать при назначении наказаний, а также предложения и рекомендации по совершенствованию системы уголовного правосудия. Различают смягчающие и отягчающие обстоятельства для наложения взысканий, наложения меньших наказаний и порядок их исчисления при наложении разных видов взысканий. С учетом характера преступления, совершенного преступником, противостояние принципам гуманности и верховенства права обсуждалось как приоритетное при отправлении правосудия. Достижение цели наказания и предотвращения преступлений является приоритетом государственной политики. Также сравнивается ситуация в нашей отечественной системе с изучением зарубежного опыта вынесения приговоров и анализируются вопросы их реализации.*

Ключевые слова: *уголовное наказание, отягчающие и смягчающие обстоятельства, подготовка к преступлению, покушение, соучастие в преступлении, вынесение приговора.*

GENERAL BASES FOR PUNISHMENT: ANALYSIS AND SUGGESTIONS

Tillayev Dostmukhammad Ne'matjon ugli,
Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. Any person found guilty of a crime must be prosecuted and punished according to the socially dangerous act committed. Today, the administration of justice is one of the most important parts of public policy. The punishment imposed by the court on behalf of the state must be fair and sufficient for the individual to recover morally. This article outlines the aspects that courts need to consider when imposing penalties, and offers suggestions and recommendations for improving the area of criminal sentencing. There are mitigating and aggravating circumstances for the imposition of penalties, the imposition of lesser penalties, and the calculation of other types of penalties. It was discussed that the principles of humanity and the rule of law are the priorities in the administration of justice, taking into account the nature of the crime committed by the offender. Achieving the goal of sentencing and preventing crime is a priority of public policy. It also compares the situation in our national system with the study of foreign experience in sentencing and discusses their implementation.

Keywords: criminal punishment, abduction and mitigation, preparation for a crime, assassination, complicity in a crime, imposition of a sentence.

Kirish

Bugungi kunda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli hukm chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish davlat siyosatining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda Jinoyat kodeksi (bundan buyon matnda JK deb yuritiladi)ning odillik va insonparvarlik prinsiplariga tayaniladi. Chunki bir tomonda shaxs, ikkinchi tomonda esa qonun ustovorligi turadi. Jinoyat sodir etgan shaxsga tayinlanadigan jinoiy jazoning miqdori va muddati adolatli va shaxsning ijtimoiy holatlariga mutanosib bo'lishi lozim.

JKning 54-moddasiga ko'ra: Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud Jinoyat Kodeks Maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada Umumiy qismning qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi [1].

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadida "davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish"[2] kerakligi keltirib o'tilgan. Bu esa sudlar faoliyatiga va odil sudlovga qaratilayotgan e'tiborning oshishidan darak beradi.

O'zbekistonda Respublikasida birinchi instansiya sudlarida 2018-yilda 38 183 ta, 2019-yilda 28 846 ta, 2020-yilda 30 282, 2021-yilda esa 47 657 ta jinoyat ishlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, shaxslarni sud zalidan qamoqqa olish ko'rsatkichlari 2018-yilda 1990 ta, 2019-yilda 1542 ta, 2020-yilda 1747 ta, 2021-yilda 2707 tani tashkil etgan bo'lsa, ozod etilgan shaxslar 2018-yilda 3290 ta, 2019-yilda 3080 ta, 2020-yilda 3434 ta, 2021-yilda 5930 tani tashkil qilgan. Sudlar tomonidan oqlangan shaxslar dinamikasi esa 2018-yilda 867 ta, 2019-yilda 859 ta, 2020-yilda 781 ta, 2021-yilda esa 932 tani tashkil qilgan [3]. Ushbu raqamlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqish ko'rsatkichi 2018-yilga nisbatan 2021-yillarda oshganini, shuningdek, sudlar tomonidan oqlov hukmi chiqarish ko'rsatkichlari ham nisbatan ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida sudlarga jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda yanada ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini nazarda tutadi, chunki jinoiy jazoni o'tayotgan shaxs uchun jazo kaloniyasi tarbiya maskani vazifasini o'tamog'i lozim.

Jinoiy jazo davlatning eng muhim majburlash choralaridan biri hisoblanib, bir tomondan davlatning o'tkir quroli bo'lsa, ikkinchi tomondan inson va fuqarolarning mulkiy, siyosiy, iqtisodiy huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi [4].

Material va metodlar

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida ilmiy-nazariy manbalar tahlilini va qonun hujjatlari asoslarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid bo'lgan ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xorijiy mamlakatlarda ushbu sohada amalda bo'lgan holatlar tahlil qilinib, milliy tizimga joriy qilish imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bilishning umumiy-ilmiy metodlari bo'lgan dialektik metod, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli tahlil qilish uslublari, shuningdek, umumiy mantiqiy metodlar – induksiya, deduksiya, analiz, sintez va maxsus huquqiy metodlar qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar va huquq normalarini sharhlashda grammatik tahlil metodidan ham foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Jazo tayinlash – ijtimoiy munisabatlarni jinoyat-huquqiy tarafdin himoya qilishning asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab jazoning o'zi bu jinoyat-huquqiy himoya qilish mexanizmining asosiy elementi bo'lib, davlat jazo choralarini tanlash jarayonini qanchalik to'g'ri va sermahsul tashkil etilganligi va qanchalik darajada natija berishini aniqlab beradi [5].

Shuningdek, jazo tayinlashga Q. Rozimova tomonidan shunday tarif berilgan: "jazo tayinlash – jinoyat qonun hujjatlariga muvofiq JKning prinsiplariga asoslangan holda sud tomonidan jinoyat sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxsga tayinlanadigan jazo turi va miqdorining belgilanishi" [6].

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun sharoitlar yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilishiga aytiladi (JK 25-moddasi 1-qismi). Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoiy faoliyatning ikkinchi bosqichidir. JK 25-moddasi 2-qismiga muvofiq, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi [7].

Ishtirokchilik tushunchasi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etish jazoni va qilmishni og'irlashtiruvchi holat bo'lganligi sababli qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish hamda adolatli va qonuniy jazo tayinlashda jinoyatda ishtirokchilik tushunchasini va uning belgilarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

O'zbekiston Respublikasi JKning 58-moddasida: Sud tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og'ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi kerakligi keltirib o'tilgan. Mazkur kodeksda ushbu tartib tatbiq etilmaydigan holatlar ham keltirib o'tilgan.

Shuningdek, tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas [1].

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun sud jazo tayinlashda har bitta aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo'lgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o'ziga jazo tayinlashda hisobga olinishi belgilangan.

Tamom bo'lmagan jinoyat sifatida, faqat jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd qilish tan olinishi lozim. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy ravishda qaytish, tamom bo'lmagan noqonuniy tajovuz turi sifatida baholanib jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qiladi. Shuningdek, jazoning og'irligi jinoyatning sodir etilishi bosqichlari bilan mutanosib bo'lishi kerak. Shuning uchun ham jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish va tugallangan jinoyatlar uchun bir

me'yorda jazo tayinlash mumkin bo'lmaydi. Bunda uning ijtimoiy xavflilik darjasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Ukraina Jinoyat kodeksining 68-moddasida tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning asoslari keltirib o'tilgan. Unga ko'ra:

1. Tugallanmagan jinoiy huquqbuzarlik uchun jazo tayinlashda sud Ukraina Jinoyat Kodeksining 65-67-moddalari qoidalariga amal qilgan holda, shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning og'irligini, jinoiy g'ayriqonuniy niyatning amalga oshirilganlik darajasini va jinoyat sodir etilganligini, jinoiy huquqbuzarlik sodir etilmaganligi sabablarini hisobga oladi.

2. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeks maxsus qism moddasining sanksiyasida (moddaning bir qismining sanksiyasida) nazarda tutilgan eng og'ir jazo turining eng yuqori muddati yoki miqdorining yarmidan oshmasligi kerak.

3. Jinoiy huquqbuzarlikka suiqasd sodir etganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori eng og'ir turdagi eng ko'p muddat yoki miqdorning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak.

4. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmaydi, 109-114-moddalarida nazarda tutilgan Ukraina milliy xavfsizligi asoslariga, tinchlikka, fuqarolar xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etish hollari bundan mustasno.

5. Sud jinoyat sodir etishda ishtirokchilarga jazo tayinlashda Jinoyat Kodeksning 65-67-moddalari qoidalariga amal qilgan holda, ularning har birining jinoiy huquqbuzarlik sodir etishdagi ishtirokining xususiyati va darajasini hisobga oladi [9].

Ukraina Jinoyat kodeksining ushbu moddasida nazarda tutilgan holatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd uchun jazo tayinlash alohida alohida nazarda tutilgan, ya'ni jinoyatga tayyorgarlik uchun Maxsus qism moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatining yarmidan, suiqasd uchun esa uchdan ikki qismidan oshib ketmasligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi JKga ko'ra jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd uchun umumiy eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan ortiq bo'lmasligi belgilangan. Boshqa holatlarda mamlakatlar o'rtasidagi qonunchilik normalarining o'zaro o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Belorussiya davlati Jinoyat kodeksining 67-moddasiga asosan:

1. Tugallanmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda aybdor tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlarning xususiyati va xavflilik darajasi, jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi hamda jinoyat tugallanmagan holatlar hisobga olinadi.

2. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun o'lim jazosi qo'llanilmaydi [10].

Ushbu holatlar yuqorida keltirib o'tilgan Ukraina Jinoyat kodeksi O'zbekiston JK moddalarida nazarda tutilgan holatlar o'xshashlikni ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi JKning 61-moddasida jazolarni qo'shishning hisoblash qoidalarini keltirib o'tilgan, unga ko'ra:

Har xil turdagi asosiy jazolarni qo'shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni:

- a) ozodlikni cheklashning yoki intizomiy qismga jo'natishning bir kuniga;
- b) axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga;
- d) majburiy jamoat ishlarining to'rt soatiga to'g'ri keladi.

Jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikni cheklash, xizmat bo'yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari jazosi bilan qo'shilganda har qaysisi alohida ijro etiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan holatga asosan, har hil turdagi jazolarni qo'shganda ularning nisbati faqatgina ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan ishlab chiqilgan, ammo ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan har hil turdagi jazolarni hisoblashning aniq belgilangan tartibi ishlab chiqilmagan.

Belorussiya davlati Jinoyat kodeksining 74-moddasiga asosan:

Jinoyatlar yig'indisi va hukmlar yig'indisi bo'yicha jazolarni qo'shishda:

- ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir kuni;
- ✓ qamoqning bir kuniga

- ✓ ozodlikdan cheklashning ikki kuniga;
- ✓ ahloq tuzatish ishlari va harbiy xizmatni cheklashning uch kuniga;
- ✓ majburiy amoat ishlarining yigirma to‘rt soatiga.
- ozodlikdan cheklashning bir kuni:
- ✓ ahloq tuzatish ishlarining bir yarim kuniga;
- ✓ majburiy jamoat ishlarining o‘n ikki soatiga
- ahloq tuzatish ishlarining bir kuni majburiy jamoat ishlarining sakkiz soatiga tenglashtirib

hisoblanadi [10].

Ushbu holatlarni o‘zaro taqqoslaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston JK ga nisbatan Belarussiya Jinoyat kodeksidagi normalar har hil turdagi jazolarni qo‘shib hisoblashda soddalashtirilgan holatlar mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi JKning 57-moddasida Yengilroq jazo tayinlash keltirib o‘tilgan, unga ko‘ra “Sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e‘tiborga olib, alohida hollarda Jinoyat Kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan ushbu jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum Qarorining 37-bandiga asosan: “Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar ro‘yxati qonunda ko‘rsatilmaganligini nazarda tutib, sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkin. (Masalan, moddiy zararining to‘liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og‘ir kasalligi, ularning mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo‘qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, uning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochishda faol ishtirok etganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori, jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi va h.k.)”[11].

Sud jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda JKning 55-56-moddalarida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi va jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi. Jazo tayinlashning umumiy asoslari JK umumiy qismi normalarining predmetli aks etishi bo‘ladi. Ayni paytda ular jazo tayinlashda alohida majmualar bo‘lmay qoladi, balki yaxlit va tizimli qoidalarga – mohiyati qo‘llanadigan davlat majburlov choralarini individuallashtirish bo‘lgan asoslarga aylanadi. Shuni aytib o‘tish lozimki, jazoni individuallashtirish jazoni tayinlash jarayonida boshqa umumiy me‘yorlarga: insonparvarlik va adolat tamoyillariga amal qilishni istisno etmaydi, balki talab etadi [7].

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi [1]. Sud sodir etilgan jinoyat yuzasidan aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan jazo tayinlashda e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan holatlardan biri JK ning jazoni yengillashtiruvchi (JK 55-modda), jazoni og‘irlashtiruvchi (JK 56-modda) holatlari muhim sanaladi. Ushbu kodeksga asosan, sud jazo tayinlashda JK 55-moddalarda nazarda tutilgan holatlardan tashqari holatlarni ham jazoni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkinligi belgilangan.

Belarussiya davlati JKga murojaat qiladigan bo‘lsak, uning 63-64-moddalarida yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar keltirib o‘tilgan va milliy qonunchiligimizdagi holatlardan farqli jihatlari mavjud: yengillashtiruvchi holatlar qatorida voyaga yetmagan farzandi borli sababidan jinoyat sodir etgan, og‘irlashtiruvchi holatlar qatorida esa yollanma jinoyat sodir etish va kasbiy qasamyodini buzish natijasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish holatlari belgilangan.

Shuningdek, ushbu JKning 69-moddasida 63-moddasi birinchi qismining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlardan kamida bittasi mavjud bo‘lsa, ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar bo‘lmagan taqdirda esa – muddat yoki jazo miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng yuqori muddatning yarmidan oshmasligi belgilab qo‘yilgan.

Xulosalar

Tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy jazo tayinlash masalalarini tahlil qilish jarayonida amaldagi O'zbekiston Respublikasi JKning 58-moddasiga asosan "Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerak"ligi belgilangan, ammo Ukraina Jinoyat kodeksiga asosan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun eng ko'p jazo muddatining yarmidan, suiqasd uchu esa uchdan ikki qismidan oshmasligi belgilangan. Jinoyatga suiqasd jinoyat sodir qilishga tayyorgarlik ko'rishga nisbatan ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagicha JK normalariga quyidagicha o'zgartirish kiritilishini lozim deb hisoblaymiz:

Birinchidan, JK ning 58-moddasida Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir qilishga suiqasd uchun jazo tayinlashning alohida-alohida tartibini belgilash. (Ukraina davlati tajribasi). JKning 30-moddasiga asosan jinoyatda ishtirokchilik turlari hisoblangan tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham JK Maxsus qismida bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Ammo jinoyat sodir etilish holatlari bo'yicha vazifalarning og'ir yengilligi har xil hisoblanadi. Ishtirokchilik uchun ham jazo tayinlashda ularning darajalariga qarab, har hil tartib belgilanishi va JK ning moddasida qat'iy qilib kiritilishi lozim.

Ikkinchidan, JKning 61-moddasida xar hil turdagi jazolar tayinlanganda ularni hisoblash qoidalari keltirib o'tilgan, ammo ularning nisbati faqatgina ozodlikdan mahrum qilish jazosiga qarab belgilangan. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan turdagi bir nechta jazolar tayinlanganida ularni hisoblash kodeksda nazarda tutilmagan va bu bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Jinoiy jazo tayinlash shaxsni hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun bu kabi holatlar kodeksda mustahkamlab qo'yilishi lozim (Belarussiya tajribasi).

Uchinchidan, Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan yengilroq bo'lgan jazo tayinlashda har bir holat sud tomonidan sinchkovlik bilan o'rganilishi lozim. Chunki, sud tomonidan aybdor dep topilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazoning miqdori va muddati adolatli bo'lishi lozim. Davlat nomidan va sud tomonidan berilayotgan bunday yengilliklar jinoyat sodir etgan shaxslar o'rtasida noto'g'ri munosabatning shakllanishiga olib kelmasligi lozim. Haqiqatdan ham sodir etilgan jinoyat yuzasidan, shaxsning jiddiy tuzalish yo'liga o'tganligi, yetkazilgan zararni to'liq qoplaganligi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi va boshqa zarur holatlarni inobatga olgan holda sud insonparvarlik prinsipini qo'llagan holda ushbu shaxsga JK 57-moddasiga asosan yengilroq jazo tayinlashi mumkin.

To'rtinchidan, JK ning 55-moddasidagi jazoni yengillashtiruvchi holatlar tarkibiga "voyaga yetmagan farzandi mavjud bo'lgan yolg'iz ayol tomonidan jinoyat sodir etish", shuningdek JK 56-moddasi tarkibidagi jazoni og'irlashtiruvchi holatlar qatoriga esa "yaqin qarindoshiga yoxud yaqin kishisiga nisbatan jinoyat sodir qilish", "kasbiy qasamyodini buzish orqali jinoyat sodir qilish" kabi holatlarni kiritishni lozim deb hisoblaymiz.

Bu kabi o'zgartirishlar jazo tayinlash uchun, sudlar faoliyatida yengilliklar yaratishi va ko'p jihatlardan sudyaning ichki ishonchiga havola etilishi holatlariga asosli yordam berishi mumkin. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga sud tomonidan yetarli va zarur bo'lgan jazo tayinlanishi lozim, shundagina jazo tayinlashdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan] 22.09.1994. Available at: <https://lex.uz/docs/-111453/>.

2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [Development strategy of the New Uzbekistan]. Available at: Янги_Ўзбекистоннинг_тараққиёт_стратегияси.pdf/.
3. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2022/17-01/jinoyat-2021-12oy.pdf/>.
4. Mingalimova M.F. Naznachanie nakazaniya s uchetom smyagchayushix obstayatelstvo. Diss. kandidada yuridichiskiy nauk. Moskva, 2019, 15-bet.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharx.[Commentary to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan] Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016-yil 1-noyabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] Umumiy qism. M. Rustamboyev. Toshkent: Adolat, 2016. 387-b.
6. Rozimova Q.Yu. Bir necha jinoyat va bir necha xukm yuzasidan jazo tayinlash [Punishment for multiple offenses and multiple convictions]. Diss. yu. fan. bo'y.fal.doktori (PhD) avtoreferat. 15-b.
7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan] Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 132 b.
8. Jinoyat huquqi. [Criminal Law] (Umumiy qism) Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov. T.: Adolat nashriyoti, 2020, 114-b.
9. Criminal code of the Republic of Ukraine.05.04.2001. article 68 file:///C:/Users/User/Desktop/Til/dissertatsiya%20uchun/kodekslar/ukraina.pdf
10. Criminal code of the Republic of Belarus.09.07.1999. article 67. Available at: file:///C:/Users/User/Desktop/Til/dissertatsiya%20uchun/kodekslar/ugolovnyj_kodeks_respublyky_belarus.pdf
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida" [Decision of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan "on the practice of sentencing by courts"] 03.02.2006.37-band 3-xatboshi. Available at: <https://lex.uz/docs/-1455976>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.